O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 9 - dekabr 499-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16-avgustdagi 468-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog‘lomlashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–346-son qarori bilan ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini takomillashtirish, boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ko‘p kvartirali uylardagi umumiy mol-mulkni saqlash va ta’mirlashda aholiga sifatli xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi PQ–346-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16- avgustdagi 468-10-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda mas’ul ijrochilar tomonidan chora-tadbirlar dasturida belgilangan topshiriqlar o‘z muddatlarida bajarilishi ta’minlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov), tuman prokuraturasi (B.Olimov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo`limi (J.Berdiyev), tuman Xalq banki (S.Isoqov) birgalikda:

- 2022-yil 1-sentabrga qadar muammoli kreditor qarzdorliklari mavjud har bir

uy-joy mulkdorlari shirkatining boshqaruv usulini o‘zgartirish bo‘yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirgan holda ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishining mazmun mohiyatini boshqaruv kompaniyalari hamda uy-joy mulkdorlari shirkatlariga yetkazilishi va tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlansin.

- Muammoli kreditor qarzdorliklari mavjud bo‘lmagan va moliyaviy-iqtisodiy holati barqaror ko‘p kvartirali uylarning boshqarish organlari faoliyatiga aralashuvga yo‘l qo‘yilmasligi ta’minlasin.

4. Qaror bilan 2022-yil 1-noyabrdan boshlab ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari boshqaruv faoliyatini, ular elektron reestrga kiritilgandan so‘ng amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Viloyat hokimining 2017-yil 24-apreldagi 184-sonli qarori;

viloyat hokimining 2017-yil 28-apreldagi 196-sonli qarori;

- viloyat hokimining 2021-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ–5152-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 350-son qarorining tegishli bandlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi PQ–346-son qarorining 2-ilovasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan holda ma`lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman hokimligi (S.Mirsagatov), tuman Qurilish bo`limi (N.Bazarbayev) Kadastr agentligi (Z.Xaitov) bilan birgalikda 2024-yil 1-yanvarga qadar o‘z hududlaridagi ko‘p kvartirali uylar joylashgan va ularga tutash yer uchastkalarini umumiy foydalanish uchun (notijorat maqsadlarda) ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqi asosida berish yuzasidan qarorlar qabul qilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i J.Berdiyev belgilansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**